

Shartnoma № 4

Toshkent sh.

“22” Июль 2022 yil

“AKBAR HI TECH STYLE” mas’uliyati cheklangan jamiyati bundan buyon “Yetkazib beruvchi” deb yuritiladi, direktor A.A. Sidikov bir tomondan Chilonzor tumani mактабгача та’lim bo’limi “Buyurtmachi” deb yuritiladi, bo’lim mudiri O. Musurmonov “Ustav” asosida ish yurituvchi, boshqa tomondan, quyidagi shartlar bo’yicha ushbu shartnomani tuzgan:

1. SHARTNOMA PREDMETI

1.1. Sotuvchi ushbu Shartnoma shartlariga muvofiq tovarlarni assortimenti va miqdori bo’yicha xaridorga yetkazib berish majburiyatini oladi va xaridor ushbu tovarlarni qabul qilish va ular uchun ushbu Shartnomada belgilangan pul miqdorini to’lash majburiyatini oladi.

1.2. Shartnoma bo’yicha yetkazib beriladigan tovarlarning assortimenti, miqdori, nomenklaturasi, boshqa sifat va miqdoriy tafsiflari kelishilgan va ushbu Shartnomaning ajralmas qismi bo’lgan Yetkazib berish spetsifikatsiyasida (keyingi o’rinlarda “Spetsifikatsiya” deb yuritiladi) ko’rsatilgan.

1.3. Ushbu Shartnomaning spetsifikatsiyasi:

Nº	Tovar nomi	O’lechov birligi	Miqdori	Narxi	Jami	Summa QQSSiz
1	Xo’jalik sovuni	kg	3 206	17 900	57 387 400	QQSSiz
2	Kir yuvish kukuni	kg	9 957	12 900	128 445 300	QQSSiz
3	Sovun yoki qo’l yuvish uchun gel	litr	3 206	15 900	50 975 400	QQSSiz
4	Oqartiruvchi yuvish vositasi	litr	3 206	7 200	23 083 200	QQSSiz
5	Hojatxonani yuvish vositasi	litr	8 543	24 450	208 876 350	QQSSiz
6	Yog’sizlantiruvchi vosita	litr	2 139	17 100	36 576 900	QQSSiz
Shartnomaning umumiy qiymati, QQSSiz:		X	X	X	505 344 550	QQSSiz

2. SHARTNOMA NARXI VA SHARTNOMANING UMUMIY QIYMATI

2.1. Tovarlarning narxlari, shu jumladan QQSSiz o’zbek so’mida belgilanadi va ushbu Shartnomaning hisob-fakturalarida ko’rsatilgan.

2.2. Shartnomaning umumiy qiymati: **505 344 550 so’m**

2.3. Tovarlar narxiga sotuvchining barcha xarajatlari, shu jumladan soliqlar va ushbu Shartnomaning amalga oshirish bilan bog’liq boshqa xarajatlar kiradi.

2.4. Narxlar qat’iy belgilangan va ushbu Shartnomaning amal qilish muddati davomida hech qanday o’zgarishlar kiritilmaydi.

3. TO’LOV TARTIBI VA O’TКАZISH SHARTLARI

3.1. Xaridor ushbu Shartnomaning umumiy qiymatining 30% (o’ttiz foizi) miqdorida **151 603 365 so’m** oldindan to’lov yo’li bilan tovar yetkazib berish uchun to’lovni amalga oshiradi, to’loving qolgan qismi 70% (yetmish foizi) **353 741 185 so’m** xaridor Tovar yetkazib beruvchining hisob raqamiga 10 (o’n) bank kuni ichida tovar yetkazib berulganligini tasdiqlovchi hisob-fakturalar va/yoki fakturalarning asl nusxalari taqdim etilganida mablag’ o’tkazishi shart.

3.2. Oldindan to’lov amalga oshirilganligi tasdiqlanishini olgandan so’ng, sotuvchi yuqoridagi tovarni avans to’langan kundan boshlab 10 (o’n) kalendar kun ichida hamda ushbu Shartnomada nazarda tutilgan sifat va miqdorga muvofiq topshirish majburiyatini oladi.

3.3. Tovarlarni yetkazib berish shartlari: Sotuvchi tashkilotlarga o’zi yetkazib boradi.

4. TOMONLARNING MAS'ULIYATI VA MAJBURIYATLARI

4.1. Sotuvchi quyidagi majburiyatlar oladi:

4.1.1. Texnik shartlarga muvofiq va ushbu Shartnoma shartlariga muvofiq tovarlarni topshirishni ta'minlash;

4.1.2. Xaridorning iltimosiga binoan, unga tovarni topshirish jarayoni haqida xabar berish;

4.1.3. Ishlab chiqaruvchi yoki vakolatli ishlab chiqaruvchi tomonidan ishlab chiqarilgan sertifikatlangan tovarlarni o'tkazish.

4.2. Xaridor o'z zimmasiga quyidagilarni oladi:

4.2.1. Ushbu Shartnoma shartlariga muvofiq, sotuvchi tomonidan yetkazib berilgan tovarlarni kechiktirmasdan va tovarlarni topshirishni tasdiqlovchi berilgan hisob-fakturaga muvofiq qabul qilish.

4.2.2. Ushbu shartnoma shartlariga muvofiq, olingen tovarlar uchun o'z vaqtida to'lovni amalga oshirish.

4.2.3. Ushbu shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarmaslik yoki lozim darajada bajarmaslik natijasida sotuvchiga yetkazilgan zararni qoplash.

4.3. Sotuvchi tovarlarning nuqsonlari va/yoki sifatsizligi uchun, agar u ular haqida ataylab sukat saqlagan yoki yo'qligiga ishonch hosil qilgan bo'lsa, javobgar bo'ladi. Ushbu shartnomada nazarda tutilgan hollarda yoki tovari o'tkazmaslik yoki tovari topshirishni kechiktirish yoki sotuvchi sifatsiz tovarlarni topshirish yoki sotuvchining aybi bilan boshqa zarar yetkazilgan taqdirda, xaridor sotuvchini oldindan ogohlantirmasdan shartnomani bekor qilish huquqiga ega.

4.4. Tovarlarni to'liq yetkazib bermaganlik yoki yetkazib berish muddatlarini kechiktirib yuborganlik uchun neustoyka penya shaklida undiriladi. Bunda penyaning miqdori har bir yetkazib berilmagan yoki yetkazib berish muddatlari buzilgan tovarlar umumiyligi summasining 0,5 % miqdorida majburiyat amalda bajarilguniga qadar undiriladi. Ammo jami yetkazib berilmagan tovar summasining 50% miqdoridan oshmagan miqdorda penya to'laydi. Yetkazib berilgan tovarlar (ishlar, xizmatlar) haqini o'z vaqtida to'lamaganlik uchun sotib oluvchi (buyurtmachi) yetkazib beruvchiga o'tkazib yuborilgan har bir kun uchun kechiktirilgan to'lov summasining 0,4 foizi miqdorida, ammo kechiktirilgan to'lov summasining 50 foizidan ortiq bo'lмаган miqdorida penya to'laydi. Penya foizlarini to'lash tomonlarni ushbu Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishdan ozod qilmaydi.

5. TOVARLARNING SIFATI

5.1. Yetkazib berilayotgan tovarlarning sifati SanPin talablariga va tovarlar uchun belgilangan boshqa majburiy talablarga javob berishi kerak.

5.2. Tovarlarning miqdori va sifati bo'yicha da'volar mahsulotni qabul qilish vaqtida kelishib olinadi. Tomonlarning kelishuviga binoan rad etilgan tovarlar almashtirilishi yoki qaytarilishi kerak. Sifatsiz tovarlarni Yetkazib beruvchiga qaytarish har ikki tomon vakillaridan komissiya a'zolari tomonidan imzolangan tovarlarni sifati (miqdori) bo'yicha qabul qilish dalolatnomasi asosida amalga oshiriladi.

6. SHARTNOMA AMAL QILISH MUDDATI

6.1. Ushbu Shartnoma imzolangan paytdan boshlab kuchga kiradi va Tomonlar uchun 2022-yil 31-dekabrgacha amal qiladi.

7. FORS-MAJOR

7.1. Kutilmagan fors-major holatlari, xususan: ish tashlashlar, yong'inlar, zilzilalar, davlat organlarining harakatlari va harakatsizligi va elementlari tomonlardan biri hal qila olmaydiganlardan tashqariga chiqadigan boshqa hodisalar, agar bunday hodisalar haqiqatan ham Shartnomaning o'z vaqtida bajarilishiga ta'sir qilsa va Tomon bunday holatlarga darhol duch kelgan bo'lsa, 10 (o'n) ish kuni ichida faqat majburiyatni bajarishning tegishli kechikishiga olib keladi.

7.2. Shartnomaning 7.1-bandda ko'rsatilgan muddatda manfaatdor Tomonga yozma ravishda xabar berilmagan bo'lsa, fors-major holatlari hisobga olinmaydi.

7.3. Agar yuqorida qayd etilgan fors-major holatlari 2 (ikki) oydan ortiq davom etsa, Tomonlar Toshkent tumanlararo iqtisodiy sudiga murojaat qilmasdan, Tomonlar o'zaro kelishuviga binoan ushbu Shartnomani bekor qilishga haqli.

8. NIZOLARNI HAL ETISH TARTIBI

8.1. Ushbu Shartnoma bo'yicha yoki u bilan bog'liq holda Tomonlar o'rtasida yuzaga kelgan barcha nizolar yoki kelishmovchiliklar Tomonlar o'rtasidagi muzokaralar yo'li bilan, kelishuvga erishilmagan taqdirda – da'vo tartibida hal qilinadi. Da'voni ko'rib chiqish muddati da'vo kelib tushgan kundan boshlab 10 (o'n) kunni tashkil etadi.

8.2. Agar nizolarni ushbu Shartnomaning 8.1-bandida ko'rsatilgan usullar bilan hal etishning iloji bo'lmasa, nizolar taraflar tomonidan Toshkent tumanlararo iqtisodiy sudiga yuboriladi.

9. KORRUPSIYAGA QARSHI TALABLAR

9.1. Ushbu shartnomaning har bir taraflari bir-biriga nisbatan amaldagi korrupsiyaga qarshi kurash talablari, shu jumladan, bu bilan cheklanib qolmasdan, barcha amaldagi qonun va qoidalarga oid shartlarni va talablarni tadbiq etilishini ifodalaydi va kafolatlaydi.

9.2. Tomonlar shartnomaning amal qilish muddati davomida O'zbekiston Respublikasining korrupsiyaga qarshi amaldagi talablariga va barcha qonun, qoidalariiga qat'iy rioya qiladi.



10. QO'SHIMCHA SHARTLAR

10.1. Ushbu Shartnoma o'zbek tilida tuzilgan va bir xil yuridik kuchga ega 2 (ikki) nusxada, har bir Tomon uchun bittadan tuzilgan.

10.2. Ushbu Shartnomaga kiritilgan barcha o'zgartirishlar va qo'shimchalar, agar ular yozma ravishda tuzilgan va Tomonlarning vakolatli vakillari tomonidan imzolangan bo'lsa, haqiqiy hisoblanadi. Yozma shakl deganda Tomonlar bir-biriga yuboriladigan xatlar, telegrammalar, telefakslar, birqalikda imzolangan bayonomalar, bitimlar, aktlar, spetsifikatsiyalar, hisob-fakturlar va boshqalar yordamida erishilgan barcha kelishuvlar tushuniladi.

10.3. Ushbu Shartnoma shartlari Tomonlar kelishuvi bilan o'zgartirilishi yoki to'ldirilishi mumkin. Shartnomaga kiritilgan barcha o'zgartirish va qo'shimchalar qo'shimcha bitimlar bilan rasmiylashtiriladi va tomonlarning vakolatli vakillari tomonidan imzolanadi.

11. TOMONLARNING HUQUQIY MANZILLARI VA BANK REKVIZITLARI

Yetkazib beruvchi	Buyurtmachi
<p>"AKBAR HI TECH STYLE" MCHJ INN: 309 454 773 Manzil: Farg'ona viloyati, Qo'shstepta tumani, Qo'shstepta tumanining QFY Sharq ko'chasi, 30-u Tel: 94 132 45 67 x/p 20208000505514890001 Bank nomi: ATB "INVEST FINANCE BANK" Farg'ona viloyat filiali MFO: 01128</p> <p>Direktor:  M.O': </p>  	<p>Chilonzor MTB INN: 305 142 509 Manzili: Diydor ko'chasi, 71-uy тэл\факс: 71-270-11-86 X\rp: 100022860262947091100251057 Bank nomi: ЦБ ЎКРБ г.Ташкент MFO: 00014</p> <p>Mudir:  M.O': </p> 

**YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN
HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO'G'RISIDA HUQUQIY XULOSA**
№

1. Loyihaning turi. Shartnoma
2. Loyihaning nomi.

Chilonzor tuman maktabgacha ta'lif bo'limi "AKBAR HI TECH STYLE" MCHJ bilan 21.07.2022-yildagi №4-sonli "oldi-sotdi shartnomasini tuzish to'g'risida".

3. Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma'lumot.

SHARTNOMA loyihasi Chilonzor tuman maktabgacha ta'lif bo'limi va "AKBAR HI TECH STYLE" MCHJ tomonidan ishlab chiqilgan va markazga huquqiy ekspertizadan o'tkazish uchun 21.07.2022-yilda kiritilgan.

Loyiha amaldagi qonun hujjalari muvofiq ishlab chiqilgan va uni qabul qilish maqsadga muvofiq.

Markaz bosh yuriskonsulti



D.Tillayev
2022-yil 21-iyul



"TASDIQLAYMAN"

Chilonzor tumani MTB mudiri-Xarid
komissiyasi raisi

O.Musurmonov

Chilonzor tumani Maktabgacha ta'lim bo'limi tasarrufidagi maktabgacha ta'lim tashkilotlarining ehtiyojlari uchun ishlar va xizmatlar, butlovchi buyumlar va asbob-uskunalar xarid qilish bo'yicha "Xarid komissiyasi"ning yig'ilishi

BAYONI № 5

2022 yil "22" Июль

Toshkent shaxri

KUN TARTIBI:

Chilonzor tumani Maktabgacha ta'lim bo'limi tasarrufidagi maktabgacha ta'lim tashkilotlarining ehtiyojlari uchun ishlar va xizmatlar, butlovchi buyumlar va asbob-uskunalar xarid qilish bo'yicha "Xarid komissiyasi"ning elektron eng yaxshi taklifni tanlash g'olibini e'lon qilish va shartnoma rasmiylashtirish to'g'risida

(O.MUSURMONOV, M.TOPILOVA, M.NIZOMOVICH, O.PANJIYEV, I.ARIPOV, YU.DURDIYEV)

Kun tartibidagi masala yuzasidan Xarid komissiyasi raisi O.Musurmonov so'zga chiqib, 19.07.2022 yilda 121084 -sonli LOT raqami bilan bo'lim tasarrufidagi maktabgacha ta'lim tashkilotlarining Sanitar-gegenik vositalar xaridi bo'yicha <https://etender.uzex.uz> tizimiga e'lon berilganligini, kiritilgan takliflar O'RQ-684-son qonun talablari asosida ko'rib chiqilganligini va eng yaxshi taklifni tanlash g'olib bilan o'rnatilgan tartibda shartnoma rasmiylashtirilishi lozimligini takidlاب o'tdi.

Bo'lim bosh buxgalteri Yu.Durdiyev mazkur LOT bo'yicha 5 ta taklif kelib tushganligini va ular quyidagi tadbirdorlar tomonidan kiritilganligini ta'kidlab o'tdi.

- 1 OOO MASLAXAT MADAD ADOLAT CONSULT
- 2 TUBEX MCHJ
- 3 OOO INSPIRE INVEST
- 4 AURORA PHARMA MCHJ
- 5 AKBAR HI TECH STYLE MCHJ Komissiya a'zolari elektron tizimdagи shaxsiy kabineti orqali eng yaxshi taklifni tanlash ishtirokchilarining taqdim etgan hujjat va ma'lumotlarni ko'rib chiqib, ball tizimida baholaganligini tasdiqladi.

Xarid komissiyasi raisi O.Musurmonov baholash natijalari bo'yicha 2022 yil 22 iyul sanasida elektron tizimda 5-sonli bayonnomma rasmiylashtirilib muhokama qilish uchun ikki ish kuniga joylashtirilganligini va tanlash ishtirokchilarini tomonidan tanlash o'tkazish natijalari bo'yicha e'tirozlar kelib tushmaganligini ma'lum qildi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib ishlar va xizmatlar, butlovchi buyumlar va asbob-uskunalar xarid qilish bo'yicha Xarid komissiyasi

QAROR QILADI:

AKBAR HI TECH STYLE MCHJ bo'lim tasarrufidagi maktabgacha ta'lim tashkilotlarining Sanitar-gegenik vositalar xaridi bo'yicha eng yaxshi taklifni tanlash g'olib deb topilsin;

AKBAR HI TECH STYLE MCHJ va maktabgacha ta'lim bo'limi o'rtasida

Davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarining Sanitar-gegenik vositalar xaridi bo'yicha shartnoma rasmiylashtirilib, g'aznachilik bo'linmasidan ro'yxatdan o'tkazilsin;

Mazkur bayonnomma ijrosini nazorat qilishni o'z zimmamda qoldiraman.

KOMISSIYA A'ZOLARI:

Bosh buxgalter

Yu.Durdiyev

Maxsus ta'mirlash-ekspluatasiya
xizmati boshlig'i

O.Panjiyev

Iqtisodchi

I.Aripov

Xo'jalik mudiri

M.Nizomovich

Sho'ba mudiri Kasaba uyushmasi raisi

M.Topilova

4957001



Yuridik shaxs (tadbirkorlik subyektini) davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risida

GUVOHNOMA

Ushbu bilan Tadbirkorlik subyektlari yagona davlat reyestriga

"AKBAR HI TECH STYLE" Mas'uliyati cheklangan jamiyat

(Yuridik shaxsning – tadbirkorlik subyektingin tashkiliy-huquqiy shakli ko'rsatilgan holdagi to'liq nomi)

"AKBAR HI TECH STYLE" MChJ

(Yuridik shaxsning qisqartirilgan nomi)

Tashkil etish (qayta tashkil etish, boshqa ro'yxatdan o'tkazish ma'lumotlarini o'zgartirish)

11.04.2022

1123673

ro'yxat raqamli yozuv kiritilganligi tasdiqlanadi.

(Sana, oy (so'z bilan), yil):

Soliq to'lovchining identifikasiya raqami (STIR):

309454773

Tashkiliy-huquqiy
shakli:

Mas'uliyati cheklangan jamiyat

Joylashgan joyi:

Farg'ona viloyati, Qo'shstepta tumani, Ферганская область, Куштепинский
район, Хумдон МСГ, ул. Шарк, дом 230,

Guvochnoma:

Farg'ona viloyati, Qo'shstepta tumani, DAVLAT
XIZMATLARI MARKAZI

tomonidan
berilgan

(Ro'yxatdan o'tkazuvchi organning to'liq nomi):

